

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

**“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot
instituti direktori N. M. Egamberdiyeva**



august

2024-yil

**13.00.09 - “Ijtimoiy pedagogika”
ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni
dasturi**

TOSHKENT - 2024

Ushbu dastur ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantlar, doktorantlarga mo'ljallangan bo'lib, unda ijtimoiy ong va uning shakllari, manaviy, siyosiy va huquqiy hayot, ijtimoiy sheriklik, shaxs erkinligi va mas'uliyati masalalariga e'tibor qaratilgan.

Tuzuvchi: **p.f.d., prof. N. M. Egamberdiyeva**

Taqrizchi: **p.f.d., prof. Z. Soliyeva**

Mazkur dastur "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kengashining 2024-yil 27-avgustdagি 5-sonli majlisida tasdiqlangan.

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 367-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishslashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruvtizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 31-martdagi 145-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Kirish imtihoni topshiruvchi-izlanuvchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi, ijtimoiy pedagogika fanining boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan bog‘liq ilmiy metodologik masalalardan xabardor bo‘lishi, shu bilan birga u o‘z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to‘g‘ri hal etishda

foydalanishi lozim.

Mazkur dastur 13.00.09 – “Ijtimoiy pedagogika” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihonlarini topshiruvchi tayanch doktorant va doktorantlarning bilim darajasini mukammal sinovdan o‘tkazish imkonini yaratadi.

FANNI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILGAN TALABLAR:

- ijtimoiy pedagogika fani haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish malakalarini shakllantirish;
- ijtimoiy-pedagogik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- ijtimoiy-pedagogik foliyat olib borishning asosiy metod va shakllarini o‘rganish;
- ijtimoiy-pedagogik foliyatning o‘ziga xosliklari va uning gumanistik yo‘naligini yoritib berish;
- ijtimoiy pedagogikaga ehtiyoj va zamonaviy jamiyat rivojining zaruriy sharoitlarini bilish;
- ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida tahlil qilish;
- ijtimoiylashuv ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o‘rganish;
- respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy hayotga ta’siri haqida bilimga ega bo‘lish.

DASTURNING MAZMUNI

Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyaga ehtiyoj va zamonaviy jamiyat rivojining zaruriy shartlari. Respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy hayotga ta’siri. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi. Hozirgi vaqtida ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya faniga zaruriyat va uning ahamiyati.

O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya fani paydo bo‘lishining madaniy-tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlari. Rahmdillik va xayr-sahovat ijtimoiy-pedagogik faoliyatning madaniy-tarixiy an’anası sifatida. O‘zbekistonda xayr-sahovatning rivojlanish bosqichlari. O‘zbekistonda “Ijtimoiy pedagog” kasbining paydo bo‘lishi.

Xorijda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi. Antik davrda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi. XIV-XV asrlarda ijtimoiy-pedagogik g‘oyalarining rivojlanishi. XVI-XIX asrlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyat. XX asrning 20-yillarida ijtimoiy-pedagogik g‘oyalar va pedagogik faoliyatning tubdan yangilanishi. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining zamonaviy bosqichi.

O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi. Eng qadimgi yozma manbalarda ijtimoiy-pedagogik g‘oyalar. Sharq uyg‘onish davri qomusiy olimlarining ijtimoiy-pedagogik g‘oyalari. XVIII-XIX asr ma’rifatparvarlarining ijtimoiy-pedagogik qarashlari. XX asr boshlarida va ikkinchi yarmida ijtimoiy-pedagogik faoliyat. II jahon urushi yillarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Mustaqillik yilarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

O‘zbek xalq pedagogikasi va islom ta’limotida ijtimoiy-pedagogik g‘oyalar. O‘zbek xalq pedagogikasida ta’lim-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakteri. O‘zbek etnografiyasida mukammal inson modeli. Islom – monoteistik din. Hadislarda ijtimoiy-pedagogik fikrlarning yoritilishi.

Ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida. Ijtimoiylashuv – ijtimoiy-pedagogik jarayon. Ijtimoiy pedagogikaning tadtiqot obyekti va ijtimoiy pedagogika rivojlanishi tarixidan. Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish. Ijtimoiylashuv – ijtimoiy-pedagogik jarayon.

Ijtimoiy-pedagogika va pedagogik sotsiologiyada “me’yor” va “me’yordan og‘ish” tushunchasi. Me’yordan og‘ishish tiplari. Me’yor va me’yordan og‘ish: tushuncha va tavsif. Me’yordan og‘ish turlari. Me’yordan og‘ish nazariyasi.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligi. Kasbiy faoliyatning tuzilishi. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyat subyekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy bilimdonlik. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sohalari. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning yo‘nalishlari, turlari va mazmuni.

Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari. “Tamoyil” va “qoida” tushunchasi. Tabiat bilan uyg‘unlik tamoyili. Madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyili.

Insonparvarlik tamoyili.

Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari va mexanizmlari. Pedagogika va ijtimoiy pedagogika kategoriyalari. Ijtimoiy pedagogik faoliyat. Ijtimoiy ta’lim va ijtimoiy tarbiya.

Ijtimoiylashuv omillari va vositalari. Ijtimoiylashuvga ta’sir etuvchi omillar. Tashqi va ichki omillar. Mikro, mezo va makro omillar. Shaxs ijtimoiylashuvining asosiy turlari va bosqichlari. Shaxs ijtimoiylashuviga siyosiy, iqtisodiy, ekologik omillarning ta’siri. Ijtimoiylashuv agentlari. Inson hayotining turli bosqichlarida yoshga bog‘liq ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyatlari. Bolalar va o‘smlarni ijtimoiylashtirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari.

Mahalla – ijtimoiy o‘z-o‘zini boshqarish organi. Mahallaning paydo bo‘lishi tarixidan. Mahallaning ijtimoiy-pedagogik o‘rni. Mahallada qadriyatlar va ijtimoiy ong translyatsiyasi. Ijtimoiy pedagogika taraqqiyotidagi turli davrlarning xususiyatlari.

Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar. Ilmiy tadqiqotning mohiyati. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada ilmiy tadqiqotning vazifalari. Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotning bosqichlari va metodlari.

Deviant xulq – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. O‘smlilik yoshida deviatsiyaning yuzaga kelishi shart-sharoitlari. Deviatsiya turlari. O‘smlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqishi sabablari. Deviatsiya konsepsiyalari.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyasi. Metodika tushunchasi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari mohiyati. Jamiyatdagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat texnologiyalari.

O‘zbekistonda faoliyat olib boruvchi ijtimoiy-reabilitatsion muassasalar. Mustaqillik yillarida ijtimoiy-reabilitatsion muassasalarning tubdan yangilanishi. O‘zbekistonda SOS – bolalar mahallasining faoliyati.

Oilada olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Oila shaxsiy sotsializatsiyaning asosiy instituti sifatida. Ijtimoiy pedagogik nuqtayi nazardan oila turlari. Oilaning ijtimoiy vazifalari. Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari.

Vasiylik va homiylik. Vasiylik va homiylik tushunchasi. Vasiylik va homiylik tarixidan. Vasiylik va homiylikning me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishi. O'zbekiston va chet ellarda vasiylik va homiylik.

Yetim bolalar bilan olib boriladigan faoliyat. Ijtimoiy yetimlik: uning sabablari, oldini olish va bartaraf etish muammolari. Yetim bolalar psixologiyasi. Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Chaqaloqlik davrida ijtimoiy moslashuv. Go'daklik davrida ijtimoiy moslashuvning o'ziga xosliklari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Bolalar nogironligi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. Nogiron bolalarning jamiyat bilan munosabatlaridagi alohida ehtiyojlari. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy muloqotga kiritish mexanizmlari. Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilalariga nisbatan ijtimoiy o'qituvchining pedagogik, psixologik va vositachilik yordami mazmuni.

Giyohvandlik – deviant xulq shakli sifatida. Giyohvandlik muammosi. Narkotik moddalarning turlari va tasnifi. O'smirlar giyohvandligining sabablari va oqibatlari. Bolalarda giyohvandlikka munosabat darajasi va har bir darajada ijtimoiy pedagogning yordam berish shakllari.

Jinoyatchilik bolalarda g'ayriqonuniy xatti-harakatning namoyon bo'lish shakli sifatida. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligi muammosi. Voyaga etmagan huquqbuzarlar uchun maxsus o'quv tarbiyaviy muassasa. Voyaga etmagan jazoga hukm qilinganlarning yosh bilan bog'liq o'ziga xosliklari hamda tarbiyaviy muassasalarida joylashuvi.

Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishning nazariy asoslari. Ijtimoiy-pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati. Nazariy, amaliy va tadqiqotchilik ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar. Ijtimoiy pedagogikaning amaliy faoliyati va texnologiyalarning o'zaro aloqalari. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar tasnifi. Tasnifning asoslari va mezonlari. Umumiy va xususiy ijtimoiy-pedagogik

texnologiyalar. Diagnostik, diagnostik-prognostik, ekspert-baholash ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar.

Ijtimoiy-pedagogik texnologiya strukturasi va mazmuni. Ijtimoiy-pedagogik texnologiya strukturasi va uni amalga oshirish jarayonining asosiy xususiyati sifatida. Ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarni tanlash jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi. Ta'lim muassasasining yo'nalishi, ijtimoiy-pedagogik vazifalar bilan bog'liqligi. Ijtimoiy-pedagogik tashxis, istiqbollash, rejalashtirish, boshqarish va baholash.

Ta'lim muassasasi ijtimoiy pedagogikaning ish texnologiyalari. Ta'lim muassasida ijtimoiy-pedagogik ishni tashkil etish. Ta'lim muassasasi ijtimoiy-pedagogik xizmatining bolani ijtimoiylashtirish (sotsializatsiya), uni tarbiyalash, sog'lomlashtirish, himoyalash, o'z-o'zini realizatsiyalashni rivojlantira boshlash muammolariga yo'naltirilganligi. Ixtisoslashtirilgan muassasalarda aqliy va jismoniy rivojlanishida ortda qolgan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishning pedagogik tamoyillari va shakllari. Maktabga ijtimoiylasholmaslik sabablari, namoyon bo'lish shakllari va uni bartaraf etish yo'llari.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati vositalari. Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati vositalari uning tashxis, boshqaruv va muvofiqlashtirish ishlari bilan belgilanganligi. Dastlabki tanishish-bilish vazifalari. Maktabgacha ta'lim muassasaning tayanch muammolari: dastlabki ijtimoiylashtirish, individual qobiliyatlarni rivojlanirish, motivatsiya, moslashish, xulq uslubini shakllantirish. Ijtimoiy pedagogikaning psixologik, pedagogik va tibbiy yo'nalishdagi markazlar bilan tashqi aloqalari. Namunaviy texnologik xaritani uning bosqichlari tavsifini yaratish. Ijtimoiy-pedagogik ishning asosiy metodlari: loyihalash, rejalashtirish, modellashtirish, dasturlash. Tashxis va istiqbollash vositalari, so'rovnomalar, kuzatuv va tahlil hujjatlari blankalari. Ijtimoiy pedagoglar orasida pedagogik madaniyat rivojlanishining asosiy darajalari.

Nomaqból oilalar bilan ishslashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari. Oila – ijtimoiylashtirishning bosh instituti. Oilada nomaqbullik ko'rsatkichlari va bola tarbiyasiga salbiy ta'siri. Bola – ijtimoiy pedagogning sa'y-harakatlari

markazi. Nomaqbul oila bilin ishlash texnologiyasi darajalari: profilaktika, tashhislash, reabilitatsiyalash. Ota-onalarga pedagogik ma'rifat tarqatish; ota-onalar va mutaxassislarning ixtiyoriy hamkoligi; erkin tarbiyalash targ'iboti. Diagnostik texnologiya tamoyillari: obyektivlik, axborot manbalarining ko'p sonliligi, klientotsentrizm, konfidensiallik (maxfiylik). Diagnostik texnologiya metodlari: shkalalashtirish, loyihalash va assotsiativ loyihalash, kartochkali, ekspressiv metodikalar, ijtimoiy biografiyalar metodi, hujjatlar tahlili. Oilaga ijtimoiy-pedagogik yordam turkumi (sikli). Reabilitatsiya ishi darajalari:

- individual (maslahat texnologiyalari, xat – murojaat, ijtimoiy patronaj); - guruhli (suhbat, ma'ruza, disput, yig'ilish, diskussiyalar, trening); umumiy (suhbat, ma'ruza. Ommaviy aksiyalar - hasharlar, sayohatlar, bayramlar uyushtirish).

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning mazmuni. Axloq - ijtimoiy ong, ta'sir ko'rsatish va tarbiyalash shakli sifatida. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar)ning ma'naviy-axloqiy g'oyalari va ularni hozirgi kunda shaxsni ma'naviy-axloqiy kamol toptirish va shakllantirishdagi ahamiyati.

Andragogika-kattalar ta'limi. Andragogika shaxs ijtimoiylashuvining obyekti va subeykti. Andragogikaning nazariy-metodologik asosi. Andragogika fanining ilmiy-nazariy konseptual tamoyillari, bazaviy kategorial apparati, taksonomiyasi, metodologik asoslari, metodlari. Aksiologik qadriyatlar tizimi. Andragogika ijtimoiy pedagogikaning obeykti. hozirgi zamon rivojlanish tendensiyalari. Gerantapedagogikaning obeykti, predmeti, rivojlanish tendensiyalari, metodlari. Gerantapedagogika konsepsiyalari.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6705763>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6704824>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-401-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6704819>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-402-son qarori <https://lex.uz/docs/6705734>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5899498>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to'g'risida"gi 367-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4850317>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini

tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-son qarori <https://www.lex.uz/uz/docs/-7061588>

12. 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-146-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5884084>

13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so‘zi gazetasi 2017-yil 16-yanvar, № 11.

15. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

16. Mirziyoeyv Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild.–Toshkent “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

17. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

18. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416-b.

21. O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6679> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 31-martdagи 145-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5932671>

Asosiy adabiyotlar

22. Egamberdiyeva. N.M “Ijtimoiy pedagogika” – Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

23. Kieron Hutton. “Social pedagogy in UK”. – Angliya. Russel House Publishing, - 2013.

24. Mavlonova. R va boshqalar “Ijtimoiy pedagogika” – Toshkent. Istiqlol, 2009.

25. Musurmonova, O.M Umumiy pedagogika. 2-qism bosma O‘quv

qo'llanma, "O'zkitobsavdonashriyot" nashriyoti, A.Musurmanova va mualliflar guruhi. Toshkent, 2020 y. 231 b.

26. Musurmonova, O.M, X.Ibragimov, O.Jamoldinova, K.Risqulova, S.Yuldashev, A.Jumaev, F.Babashev, S.Sharipova, G'Salohiddinova, K.Todjibaeva, "Umumiy pedagogika" Yoshlar nashriyot uyi. Bosma 1-qism:. Toshkent 2020. 376 b.

27. Musurmonova, O.M,M.Jumaniyozova, A.Jumaev N. Isaqulova "Umumiy pedagogika" Bosma Qism: 2."Innovatsya-Ziyo. Toshkent. 2020. 193 b.

28. Cabalova, D. Pedagogika. Praha: Grada, 2011.

29. Narziqulova. D "Ijtimoiy pedagogika va oila pedagogikasi" Namangan. O'quv qo'llanma. 2013

30. Атаева. Н, Салаева. М, Хасанов. С, - Умумий педагогика. Ўқув қўлланма, II, // X.Бобоев таҳрири остида Т: "Фан ва технологиялар", 2013.

31. Галагузова М.А Социальная педагогика – Москва. Владос, 2000.

32. История социальной педагогики / Под. пед. Галагузовой. М.А – Москва. Владос, 2003.

33. Исмаилова З. Педагогикадан амалий машғулотлар – Тошкент. «Фан», -2000.

34. Мавлонова Р ва бошқ. Педагогика. – Тошкент. «Ўқитувчи», 2001.

35. Мусурмонова, О.М Оиласда мулоқот маданияти босма Оиласда баркамол шахсни шакллантириш масалалари», илмий тўплам, Тошкент, 1995.

36. Мусурмонова, О.М Оила жамият таянчи босма Монография, «Ёшлар нашриёт уйи» нашриёти, Тошкент, 2019 й. 251 б.

37. Мусурмонова, О.М Умумий педагогика. 1-қисм босма Ўқув қўлланма, "Ўзқитобсавданашриёт" нашриёти, А.Мусурмонова ва муаллифлар гуруҳи. Тошкент, 2020 й. 399 б.

38. Musurmonova, O.M Umumiy pedagogika. 2-qism bosma O'quv qo'llanma, "O'zkitobsavdonashriyot" nashriyoti, Тошкент, 2020 й. 231 б.

39. Педагогика (педагогика назарияси ва тарихи): Ўқитувчиларни тайёрлаш ва педагогика фани таълим соҳаси бакалавриат йўналиши учун дарслик //Проф.М.Х.Тоҳтакоджаеванинг умумий таҳрири остида; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта-маҳсус таълим вазирлиги. - "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, Тошкент. 2010.

40. Хошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи (дарслик). – Тошкент. 2005.

41. Холиқов А., Педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма, "Иқтисод - Молия". Тошкент. 2010.

42. Ўзбек педагогикаси антологияси. 1 жилд // Тузувчи-муаллифлар; К.Хошимов, С.Очил – «Ўқитувчи», Тошкент. 1995.; 2 жилд // Тузувчи-

муаллифлар: С.Очил, К.Хошимов. «Ўқитувчи». Тошкент. 1999.

43. Ҳасанбоев Ж, Ҳ.Тўракулов, М.Хайдаров, О.Ҳасанбоева, Н.Усмонов. Педагогика фанидан изоҳли лугат. “Фан ва технология”, Тошкент. 2009.

44. Ҳасанбоев Ж., Сарибоев Х., Ниёзов Г., Ҳасанбоева О., Усмонбоева М. Педагогика - Ўкув қўлланма, “Фан”. Тошкент. 2006.

Internet ma'lumotlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.istedod.uz
3. www.lex.uz
4. www.moiti.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.tdpu.uz
7. www.edu.uz
8. www.nadlib.uz
9. www.uni-vologda.ac.ru
10. www.teoriya.ru
11. www.pedlib.ru

Baholash mezonlari

Kirish imtihon og‘zaki ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo‘yiladigan talablar
86-100	Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas.